

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-noyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-noyabro oylarida bozor xizmatlari hajmi 5430,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 136,4 % ni tashkil etdi.
- Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyo hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (35,8 %) tashkil etdi.


Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-noyabro oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5430,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyo hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (35,8 %) tashkil etadi.


2018 yil yanvar-noyabro oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)






Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 4524,7 mlrd.so'mga teng bo'lган.



2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 905,4 mlrd.so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-oktabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 547,8 mlrd. so'mga ko'paydi.


2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (175,8 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (114,0 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (66,2 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (34,3 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari 197,5 mlrd. so'm, transport xizmatlari 288,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 37,2 mlrd. so'mga oshgan.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**




2018 yil yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (136,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar moliyaviy xizmatlar (121,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi, %



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi 370,6 mlrd.so'mga, transport xizmatlari (63,3 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (190,8 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (50,5 mlrd. so'm), ta'lif xizmatlari (47,8 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.

Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'limgan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 15,6 mlrd.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 77,2 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,3 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,5 % ni tashkil qiladi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: **B.Zununov**

(69) 227-85-28